

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



INNOVATSIYA
SAVDO
RAQAMLI
MARKETING
BIZNES
TADQIQOT
BRENDING

№4-SON

2025-YIL, APREL

9710 xalqaro daraja



No240874

ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS



2025-YIL
APREL
№ 4-SON



Marketing

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

ELEKTRON NASHR. 30 APREL, 2025-YIL

JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazolimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabel Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elektron nashr 720 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 30-aprelda ruxsat etildi

MUNDARIJA

| | |
|---|------------|
| XORAZM VILOYATIDA INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH..... | 9 |
| Otajanov Umid Ablullayevich | |
| SANOAT KORXONALARIDA ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI | 21 |
| Nazarova Ra’no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o’g’li | |
| TA’LIM XIZMATLARI BOZORIDA “IQTISODIYOT” YO‘NALISHLARINING SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH..... | 32 |
| Bayhonov Baxodir Tursunbayevich, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna | |
| XALQARO FRANSHIZALAR FAOLIYATI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI..... | 44 |
| Xodjayev Anvar Rasulovich | |
| RAQOBAT SHAROITIDA ISHLAB CHIQRARISH KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI OSHIRISH YO‘LLARI | 56 |
| Saidov Mash’al Samadovich, Soliyev Rahmatjon | |
| ТУРИСТСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА: ЦЕЛЕВОЙ ПОРТРЕТ КИТАЙСКОГО ТУРИСТА..... | 63 |
| Гольшева Е.В. , Мурадова Л.Т. | |
| MINTAQADA MEHNAT RESURSLARI DINAMIKASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI..... | 78 |
| Kurbanov Feruz Pirnazarovich | |
| O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRAUZILMASINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH | 87 |
| Turorov Maqsudjon Asatillo o’g’li | |
| KADRLAR TANLOVINING AUTSORSING TIZIMIGA ASOSLANGAN YANGI BOSQICHINI AMALIYOTGA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI | 97 |
| Isroilov Islomiddin Kamoliddin o’g’li | |
| O‘ZBEKISTONDA TURISTIK OQIM MAVSUMIYLLIGI BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI | 104 |
| Fayazov Muxiddin Sobirovich | |
| KO‘SHMAS MULKNI BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..... | 113 |
| Mirdjalilova Dildora Shuxratovna | |
| QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRARISH KORXONALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI | 127 |
| Raximov Ilyos Ikramovich | |
| O‘ZBEKISTONDA TURIZM TARMOQLARINI SINERGETIK RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH..... | 137 |
| Saidova Dilfuza Abdufattohovna | |

| | |
|--|------------|
| ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI | 147 |
| Tohirxo‘jayeva Dilafro‘z Toir qizi, Saidov Mash‘al Samadovich | |
| ELEKTRON TIJORATDA QADOQLASH VA YETKAZIB BERISH TIZIMINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘LLARI..... | 157 |
| Ismoilova Gulnora Fayzullaevna, Xusnora Pardaboyeva | |
| TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI AHOLI UCHUN YANGI DAROMAD IMKONIYATLARINI YARATISH | 164 |
| Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li | |
| ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ..... | 171 |
| Икрамов Мурат Акрамович, Буриев Хаким Тошимович, Файзуллаев Шухрат Шерали Угли | |
| О‘ZBEKISTONDA SOLIQ ISLOHOTLARINING BIZNESGA TA‘SIRI..... | 178 |
| Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi | |
| OZIQ-OVQAT SANOATINING RIVOJLANISHIGA OMILLAR TA‘SIRINI BAHOLASH | 184 |
| Tursunova Dilnavoz Davron qizi | |
| О‘ZBEKISTONDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH | 193 |
| Xotamov Ibodullo Sadulloyevich | |
| SUN‘IY INTELLEKTNI ELEKTRON TIJORATDAGI O‘RNI | 204 |
| Shaislamova Muazzamxon Raximxodjaevna, Shayzoqova Munisa Meliqo‘zi qizi | |
| TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA KIMYO TOLALARI ISHLAB CHIQRISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMAT YARATISH ISTIQBOLLARI..... | 210 |
| Raximov Furqat Jalalovich | |
| UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH | 224 |
| Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich | |
| ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА РАЗВИТИЕ КАНАЛОВ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ООО “SAMARKAND-APPAREL”) | 232 |
| Мусаева Шоира Азимовна | |
| SANOATDA ISHLAB CHIQRISHGA YO‘NALTIRILGAN INVESTITSIYALARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI..... | 242 |
| Qorabayev Shuhratjon Axmadjonovich | |
| QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TARKIBIY-MIQDORIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI | 250 |
| Otaxonova Odinaxon Inomovna | |
| SANOAT TOVARLARI IMPORTI O‘RNINI BOSISH SIYOSATI — IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA..... | 260 |
| Muratova Shohista Nimatullayevna | |

| | |
|--|------------|
| MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT BOZORINING SHAKLLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI..... | 270 |
| Mirtoev Axrorbek Abdulpattoyevich | |
| MINTAQALAR IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI ILMIY TAHLIL QILISHGA NAZARIY YONDASHUVLAR..... | 278 |
| Ismoilov Alisher Jobir o‘g‘li | |
| AHOLIGA YUK TASHISH XIZMATINI KO‘RSATISH STRATEGIYASI..... | 285 |
| Ergasheva Muxabbat Abdusamatovna, Nuritdinov Jaloliddin Djamolovich | |
| SANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA ITQISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH..... | 293 |
| Donayeva Feruza Burxon qizi | |
| O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHSIZLIK DARAJASINING STATISTIK TAHLILI..... | 302 |
| Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna | |
| MINTAQADA TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY-EKOLOGIK RIVOJLANISHGA TA‘SIRINI BAHOLASH | 308 |
| Sapaev Maxsudbek Karimovich | |
| SOLIQ TO‘LOVCHILAR FAOLIYATINI SEGMENTLASH ASOSIDA SOLIQ XAVFLARINI ANIQLASH VA BAHOLASHNING AMALIY YONDASHUVLARI | 315 |
| Elbaeva Muqaddas Rashidovna | |
| BANK AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI | 321 |
| Absamatov Anvar Ergashevich | |
| LOGISTIKADA OMBORXONA XO‘JALIGI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH | 329 |
| Boymatov O‘tkirbek Tilovmurod o‘g‘li | |
| MAHALLALAR UCHUN UZOQ MUDDATLI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR | 336 |
| Kurbonbekova Mohichehra Turabjanovna, Ostonoqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, Eshpulatova Muazzam Barnoyevna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi | |
| O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDA EMISSION FAOLIYATI TAHLILI | 352 |
| Mutalova Malika Saydullayevna | |
| KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR | 359 |
| Norboyev Sarvar Azodovich | |
| MAISHIY KIMYO TOVARLARI B2B BOZORIDA SUN‘IY INTELLEKT YORDAMIDA TAQSIMOT KANALLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH..... | 365 |
| Ro‘ziyeva Farzona Komiljon qizi | |

| | |
|---|------------|
| O‘ZBEKISTONDA KICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING RIVOJLANGANLIK DARAJASINI STATISTIK BAHOLASH..... | 375 |
| Sharipov Ixtiyor Baxtiyorovich | |
| GLOBAL RAQOBAT SHAROITIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY JIHLTLARI | 384 |
| Tashnazarov Sur’atjon Abdullayevich | |
| INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY..... | 389 |
| Tursunqulov Ravshan Abdulxay o‘g‘li, Saydaqulov Ravshan Aliboyevich | |
| O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH VA SERVIS SIFATI MUAMMOLARI | 398 |
| Xalimova Fayyoza Nafasovna | |
| O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA ISTIQBOLLI DRAYVER SOHALARNING O‘RNI..... | 405 |
| Xolbozorov Muzraf Yusup o‘g‘li | |
| OZIQ-OVQAT BOZORI KONYUNKTURASINI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 417 |
| Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich | |
| KORXONADA INQIROZGA QARSHI BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI | 426 |
| Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Kamolov Faxriddin Xusniddin o‘g‘li | |
| HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHNING XALQARO AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDAGI HOLATI..... | 435 |
| Madraximov Umirbek Muxammadovich | |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA BOSHQARUV MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH | 443 |
| Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich, Fayzullayev Ulug‘bek Tursunbayevich | |
| SANOAT KORXONALARIDA SAMARALI KORPORATIV BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI | 451 |
| Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna | |
| ZAMONAVIY ELEKTROTEXNIKA SANOATINING GLOBAL MIQYOSDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI..... | 461 |
| Sultonova Xilola Jamolutdinovna | |
| MODALAR BIZNESIDA “YASHIL BREND” MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI..... | 468 |
| Ziyayeva Shaxlo Shoakbar qizi | |
| MINTAQADA TURIZM SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY MEDIA MARKETINGIDAN FOYDALANISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) | 476 |
| Bekjanov Dilmurad Yuldashovich, Samandarova Mohinur Qadamboy qizi | |
| REKLAMADA ISHONTIRISH VA KREATIV XABAR STRATEGIYASI | 488 |
| Safarov Alisher Yunusaliyevich | |

| | |
|--|------------|
| O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH: MARKAZ VA CHEKKA HUDUDLAR O‘RTASIDAGI FARQLAR..... | 500 |
| Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi, Hoshimov Islomxon Ilyorjon o‘g‘li | |
| KORXONALAR AYLANMA MABLAG‘LARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI..... | 514 |
| Burxanov Aktam Usmanovich | |
| INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI..... | 522 |
| Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barxayotjon Azizjon o‘g‘li | |
| SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI | 530 |
| Muxtarov Maxmudjon Marifovich | |
| PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI..... | 537 |
| Satvoldiyev Ulug‘bek Kamilovich | |
| TOZALIK VOSITALARI ISHLAB CHIQARUVCHI SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI | 545 |
| Baqoyeva Dilfuza Maqsud qizi | |
| TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH | 555 |
| Mavlyanova Dilobar Maxkamovna | |
| XORAZM VILOYATIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI | 567 |
| Xolmuratov Xolilla Sariyevich | |
| LATVIYADA SOLIQ REYTINGI TIZIMI: FISKAL INTIZOM VA HALOL BIZNESNI RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI..... | 586 |
| Abdullayev Zafarbek Safibullayevich | |
| РОЛЬ АРОМАМАРКЕТИНГА В ФОРМИРОВАНИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ПРИВЯЗАННОСТИ К БРЕНДУ | 603 |
| Кутбитдинова Мохигул Иноятовна, Матризаева Диларам Юсупбаевна | |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA AKT SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI..... | 612 |
| Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich | |
| TRANSPORT XIZMATLARI KO‘RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI | 617 |
| Rajabov Qurbon Sulaymonovich | |
| XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA HORIJIY MAMLAKATLAR STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH | 626 |
| Radjabov Bunyod Abduxalilovich | |
| QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI ORQALI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH IMKONIYATLARI..... | 635 |
| Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi | |

| | |
|--|------------|
| MINTAQADA MOLIYAVIY XIZMATLAR KO'RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI | 644 |
| Jo'rayev Shermat Isroilovich | |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AGLOMERATSIYALARI UCHUN EKOLOGIK-GEOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI | 651 |
| Irgashev Shavkatbek Turdiyevich | |
| QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQRISHNI TASHKIL ETISH | 661 |
| Haqberdiev Ulug'bek Nasrullo o'g'li | |
| HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TABAQALASHUV DARAJASINI STRATEGIK TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.... | 671 |
| Ibragimov Baxrom Baxodirovich | |
| SUG'URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA UNI KUCHAYTIRISH STRATEGIYALARI | 679 |
| Umirov Abdusalom To'rayevich | |
| O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... | 686 |
| Abdullayev Muhammadsodiq Isroil o'g'li | |
| QISHLOQ XO'JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI..... | 694 |
| Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna | |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI | 702 |
| Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li, Ollayorov Behruzbek Sardor o'g'li | |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI KORPORATIV BOSHQARUV MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY AMALIYOT TAHLILI | 709 |
| Ismailov Allayor Rashidovich | |

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich

Namangan davlat texnika universiteti
Menejment kafedrası mudiri,
professor, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
E-mail: mullabaev.bahtiyor@gmail.com

Fayzullayev Ulug‘bek Tursunbayevich

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va boshqaruv mexanizmini takomillashtirishning dolzarb masalalari o‘rganilgan. Kichik biznes iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etib, aholining bandligini ta‘minlash, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiyotning barqarorligini oshirishda asosiy vosita sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari faoliyatida raqobatbardoshlikni oshirish hamda boshqaruv tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish zarurati mavjud. Tadqiqot Namangan viloyati misolida olib borilgan bo‘lib, viloyatdagi kichik biznes subyektlarining joriy holati, rivojlanishini cheklovchi asosiy omillar aniqlanib, ularga qarshi samarali chora-tadbirlar taklif qilingan. Bunda kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va huquqiy-me‘yoriy hujjatlar tahlil etilib, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari belgilangan. Maqolada boshqaruv mexanizmlarini innovatsion yechimlar asosida takomillashtirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijalar kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish va hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, raqobatbardoshlik, boshqaruv mexanizmi, tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya, investitsiya.

Аннотация

В статье рассматриваются актуальные вопросы повышения конкурентоспособности субъектов малого предпринимательства и совершенствования механизмов управления ими. Сегодня малый бизнес играет значительную роль в развитии экономики и рассматривается как ключевой инструмент обеспечения занятости, социально-экономического развития регионов и повышения экономической стабильности. В то же время необходимо повышать конкурентоспособность малого бизнеса и совершенствовать систему управления в соответствии с современными требованиями. Исследование проводилось на примере Наманганской области, выявляя современное состояние малого бизнеса в регионе, основные факторы, сдерживающие его развитие, и предлагая эффективные меры борьбы с ними. В том числе проводится анализ государственных программ и нормативно-правовых документов, направленных на развитие малого бизнеса, и определяются пути повышения их эффективности.

В статье разработаны практические рекомендации по совершенствованию механизмов управления на основе инновационных решений, рационального использования финансовых ресурсов, повышения кадрового потенциала. Полученные результаты имеют важное значение для повышения экономической эффективности малого бизнеса и устойчивого развития экономики региона.

Ключевые слова: малый бизнес, конкурентоспособность, механизм управления, предпринимательство, экономическое развитие, инновации, инвестиции.

Abstract

This article studies the current issues of increasing the competitiveness of small business entities and improving the management mechanism. Today, small business is considered a key tool in economic development, ensuring employment of the population, socio-economic development of regions and increasing the stability of the economy. At the same time, there is a need to increase competitiveness in the activities of small business entities and improve the management system in accordance with modern requirements. The study was conducted on the example of the Namangan region, the current state of small business entities in the region, the main factors limiting their development were identified, and effective measures were proposed to combat them. In this regard, state programs, legal and regulatory documents aimed at the development of small businesses were analyzed, and ways to increase their efficiency were identified. The article develops practical recommendations on improving management mechanisms based on innovative solutions, rational use of financial resources and increasing human resources. The results are of great importance in increasing the economic efficiency of small business entities and sustainable development of the regional economy.

Keywords: small business, competitiveness, management mechanism, entrepreneurship, economic development, innovation, investment.

KIRISH

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy lokomotivlaridan biri hisoblangan kichik biznes va tadbirkorlik sohasi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda aholini bandlik bilan ta'minlash hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi mavjud muammolarni yechishda muhim o'rin tutmoqda. Xususan, kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun ham zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham kichik biznes sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida kichik va xususiy biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida sezilarli natijalarga erishildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son¹li Farmoni yaqqol misol bo'la oladi.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

Mazkur farmon va qarorlarda kichik biznesni rivojlantirish, tadbirkorlik uchun soliq va moliyaviy imtiyozlar yaratish, kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish, nazorat va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish vazifasi qo'yilgan.

Biroq, amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy resurslar, malakali mutaxassislarining yetishmovchiligi, raqamli texnologiyalarning yetarli darajada qo'llanilmasligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolar kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kichik biznes subyektlari faoliyatida mavjud bo'lgan ushbu muammolarni hal qilish uchun boshqaruvning innovatsion usullarini joriy etish, moliyaviy va kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish hamda kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyatini oshirish zarur. Ayniqsa, hududlar kesimida kichik biznes rivojlanishini rag'batlantirish va boshqaruv mexanizmlarini mukammallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning ahamiyati shundan iboratki, kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish orqali hududning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va mahalliy aholi farovonligini yaxshilash mumkin. Shuningdek, ushbu maqola orqali kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash uchun boshqaruv mexanizmlarining qanchalik zarurligi ko'rsatiladi.

Tadqiqot davomida mahalliy hokimiyat organlari, kichik biznes subyektlari rahbarlari, iqtisodchi ekspertlar va boshqa manfaatdor tomonlar ishtirokida ekspert so'rovlari, statistik ma'lumotlar hamda boshqa tahliliy metodlardan foydalaniladi. Natijada Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlari rivojlanishining aniq manzarasi shakllantirilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish borasida ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Maykl Porterning raqobat strategiyasi nazariyalari biznes subyektlari uchun fundamental asos bo'lib xizmat qilmoqda. Porterning fikricha, raqobat ustunligiga erishish uchun biznes subyektlari xarajatlarni minimallashtirish yoki differentsiatsiya qilish orqali bozorda o'z o'rnini mustahkamlashi mumkin¹.

Amerikalik iqtisodchi Piter Druker boshqaruv innovatsiyalarining biznes rivojlanishidagi ahamiyatini chuqur o'rganib, innovatsiyalar orqali tashkilot samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi². Shuningdek, Filipp Kotler kichik biznes subyektlari uchun marketing strategiyalarini shakllantirish va raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqan³.

Mahalliy olimlardan U.V. G'afurov kichik biznes subyektlarini boshqarish tizimlarini takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, O'zbekiston sharoitidagi boshqaruv mexanizmlarining o'ziga xos jihatlarini aniqlagan⁴. B.B. Mullabayevning tadqiqotlarida hududlarda tadbirkorlik faoliyatini strategik boshqarish tamoyillari batafsil ko'rib chiqilib, kichik biznesni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari ta'kidlangan⁵.

R. Qosimov esa kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyoti sohasidagi dolzarb masalalarni chuqur tahlil qilib, kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqqan⁶.

Ushbu adabiyotlar va tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishda nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning asosiy metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etdi. Bu yondashuv kichik biznes subyektlari faoliyatining barcha jihatlarini yaxlit holda tahlil qilishga imkon berdi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi: tizimli yondashuv, SWOT-tahlil, qiyosiy-statistik tahlil va ekspert baholash metodlari. Tadqiqotda Namangan viloyati statistika boshqarmasi hamda kichik biznes subyektlarining moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlari, shuningdek, ekspert so‘rovlari natijalari keng qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish holati va mavjud boshqaruv mexanizmlari tahlil qilindi. 1-jadvalda tumanlar kesimida sohalar bo‘yicha taqsimot, investitsiyalar hajmi, kredit olish imkoniyatlari va moliyaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari batafsil aks ettirilgan (1-jadval).

1-jadval

Kichik biznes subyektlarining soni va o‘shish sur‘ati (Namangan viloyati, 2023)

| Tuman nomi | Subyektlar soni | O‘shish sur‘ati (%) | Yangi ro‘yxatdan o‘tganlar soni | Yillik o‘shish (2022-2023) |
|----------------------|-----------------|---------------------|---------------------------------|----------------------------|
| Namangan shahri | 12 800 | 8.4 | 1 200 | 980 |
| Chust tumani | 5 200 | 6.7 | 430 | 320 |
| Kosonsoy tumani | 4 950 | 7.1 | 410 | 350 |
| Pop tumani | 6 300 | 5.9 | 500 | 370 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 5 100 | 6.2 | 460 | 330 |

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2023

1-jadval tahliliga ko‘ra, Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarining umumiy soni 2023-yilda 34 mingdan oshgan, shundan 12 800 tasi Namangan shahrida joylashgan. Bu holat ushbu hududning iqtisodiy markaz sifatidagi mavqeyi, zamonaviy infratuzilmasi, kommunikatsiyalar va bank-moliya tizimining rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shaharda yillik o‘shish sur‘ati 8,4 % bo‘lib, bu eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi.

So‘nggi yillarda erkin iqtisodiy zonalar, sanoat klasterlari va “yagona darcha” tizimi orqali ro‘yxatdan o‘tish jarayonining soddalashtirilishi tadbirkorlikni rivojlantirishga kuchli turtki bergan.

Chust, Kosonsoy va Pop tumanlarida o‘shish 6–7 % atrofida bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkichlar befarqlik emas, balki iqtisodiy asoslarning o‘ziga xosligidan dalolat beradi. Masalan, Chustda yangi ochilgan agroklastlar va qishloq xo‘jaligi

kooperatsiyalari kichik biznesni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Kosonsoyda esa yengil sanoat tarmoqlarining kengayishi kuzatilmoqda.

Yillik o‘rta ko‘rsatkichlari bilan yangi ro‘yxatdan o‘tgan subyektlar o‘rtasidagi tafovutlar, ayrim hollarda, norasmiy sektorning rasmiylashtirilayotgani yoki faoliyatini to‘xtatganlar hisobiga yangilarning ko‘payganini bildiradi. Bu esa statistik ko‘rsatkichlar bilan real sektor o‘rtasidagi muvofiqlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Natijada, kichik biznes subyektlarining soni emas, balki ularning iqtisodiy faolligi, barqarorligi va qo‘shgan yalpi mahsulot ulushi asosiy mezon sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

2-jadval

Faoliyat turlari bo‘yicha taqsimot (Namangan viloyati, 2023)

| Tuman nomi | Savdo (%) | Xizmat (%) | Ishlab chiqarish (%) | Qishloq xo‘jaligi (%) | Transport/logistika (%) |
|----------------------|-----------|------------|----------------------|-----------------------|-------------------------|
| Namangan shahri | 47 | 35 | 18 | 6 | 4 |
| Chust tumani | 40 | 38 | 22 | 12 | 6 |
| Kosonsoy tumani | 42 | 34 | 24 | 11 | 5 |
| Pop tumani | 44 | 33 | 23 | 10 | 5 |
| To‘raqo‘rg‘on tumani | 41 | 36 | 23 | 9 | 4 |

Manba: Namangan viloyati iqtisodiy taraqqiyot boshqarmasi, 2023

Namangan viloyatida kichik biznesning faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha tahlil qilinadigan bo‘lsa, savdo va xizmat ko‘rsatish sektorlarining ustunligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu holat past startup kapitali, tez aylanuvchi pul oqimi va katta iste‘mol talabining mavjudligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, Namangan shahri va Pop tumanida savdo faoliyatining 44–47 % oralig‘ida bo‘lishi ushbu hududlardagi iste‘mol bozori faolligi bilan bevosita bog‘liq. Biroq ishlab chiqarish sektori Kosonsoy va Chust tumanlarida yuqori ulushga ega bo‘lib, bu holat kichik sanoat zonalari, tikuv-trikotaj klasterlari hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining mavjudligi bilan bog‘liq. Ushbu tumanlar resurslarga yaqinligi, arzon ishchi kuchi va tayyor bozorlarning mavjudligi bilan ajralib turadi.

Qishloq xo‘jaligi faoliyati asosan Chust va Pop tumanlarida faollik ko‘rsatmoqda. Bu esa qishloq joylarida aholining yer resurslaridan foydalangan holda dehqonchilik, chorvachilik va bog‘dorchilik yo‘nalishlarida kichik subyektlar tashkil etayotganini ko‘rsatadi. Transport va logistika sohasi Namangan shahrida nisbatan faol bo‘lsa-da, boshqa tumanlarda bu yo‘nalish sezilarli darajada rivojlanmagan. Bu holat kichik biznesning mintaqaviy logistika infratuzilmasiga bog‘liqligini anglatadi. Shu sababli, eksport salohiyatini oshirish uchun aynan transport-logistika xizmatlariga ixtisoslashgan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Moliyalashtirish manbalari kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Namangan viloyati kesimida bank kreditlari, investitsiyalar, davlat subsidiyalari, xususiy mablag‘lar va xorijiy investitsiyalar bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjud.

3-jadval
Moliyalashtirish manbalari (Namangan viloyati, 2023)

| Tuman nomi | Bank kreditlari (mlrd so‘m) | Investitsiyalar (mlrd so‘m) | Davlat subsidiyalari | Xususiy mablag‘lar | Xorijiy investitsiyalar |
|---------------------|-----------------------------|-----------------------------|----------------------|--------------------|-------------------------|
| Namangan shahri | 680 | 430 | 90 | 150 | 60 |
| Chust tumani | 220 | 180 | 45 | 80 | 20 |
| Kosonsoy tumani | 210 | 160 | 40 | 70 | 18 |
| Pop tumani | 240 | 190 | 50 | 90 | 22 |
| To‘rao‘rg‘on tumani | 200 | 150 | 35 | 65 | 17 |

Manba: Namangan viloyati moliya boshqarmasi, 2023

Eng ko‘p moliyalashtirish Namangan shahriga to‘g‘ri kelmoqda. Bu holat banklarning filiallarga yaqinligi, garov ta‘minotining mavjudligi hamda investorlar bilan aloqalarning rivojlanganligi bilan bog‘liq. Kredit portfeli hajmida 680 mlrd so‘mlik ko‘rsatkich ushbu hududning yuqori likvidlikka ega ekanligini bildiradi.

Chust va Kosonsoy tumanlarida kreditlash darajasi pastroq bo‘lsa-da, xususiy mablag‘lar ulushi nisbatan yuqori. Bu esa tadbirkorlarning o‘z mablag‘larini ishga solishga tayyorligini ko‘rsatadi, biroq bu barqarorlik uchun yetarli emas.

Davlat subsidiyalarining ulushi barcha tumanlarda 30–90 mlrd so‘m oralig‘ida bo‘lib, ularning maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilish zarur.

Xorijiy investitsiyalar eng past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan To‘rao‘rg‘on va Kosonsoy tumanlarida esa investitsion muhitni yaxshilash, erkin iqtisodiy zonalarga kirish imkoniyatlarini soddalashtirish lozim.

Investitsiya portfelini murakkablashtirish, ya‘ni davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni yo‘lga qo‘yish, innovatsion kredit mexanizmlari, kafillik fondlari va kooperatsiya tizimlari orqali moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Aks holda kichik biznes faqat qisqa muddatli kreditlarga bog‘lanib qoladi va raqobatda yutqaza boshlaydi.

4-jadval
Ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar (2023-yil yakunlari bo‘yicha)

| Tuman nomi | Yaratilgan ish o‘rinlari (ming nafar) | Soliq tushumlari (mlrd so‘m) | Ayollar subyektlari soni | Yoshlar subyektlari soni |
|---------------------|---------------------------------------|------------------------------|--------------------------|--------------------------|
| Namangan shahri | 12.4 | 190 | 2 140 | 1 890 |
| Chust tumani | 4.8 | 72 | 860 | 720 |
| Kosonsoy tumani | 4.2 | 66 | 770 | 690 |
| Pop tumani | 5.0 | 74 | 910 | 740 |
| To‘rao‘rg‘on tumani | 4.5 | 63 | 780 | 670 |

Manba: Namangan viloyati Bandlik boshqarmasi, Soliq qo‘mitasi, 2023

Kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ta‘siri tahlili uning jamiyatdagi rolini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Namangan shahri kichik biznes orqali eng ko‘p ish o‘rinlari (12,4 ming nafar) yaratgan. Bu ko‘rsatkich

boshqa barcha tumanlarnikidan ikki-uch baravar yuqori bo‘lib, iqtisodiy faollik hamda xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining salohiyati bilan bog‘liq.

Soliq tushumlari bo‘yicha ham Namangan shahri yetakchilik qilmoqda — 190 mlrd so‘m. Bu holat kichik biznes subyektlarining nafaqat o‘z iqtisodiy manfaatlarini ko‘zlab faoliyat yuritayotganini, balki byudjet barqarorligiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatayotganini bildiradi. Pop, Chust va Kosonsoy tumanlarida ham bu ko‘rsatkichlar ijobiy tendensiyani namoyon etmoqda, biroq ularning iqtisodiy salohiyati hali to‘liq ishga solinmagan.

Ayollar va yoshlar tomonidan boshqarilayotgan kichik biznes subyektlarining ko‘pligi esa ijtimoiy inklyuzivlik tamoyillarining bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Namangan shahri yana bu borada yetakchi bo‘lib, 2 140 ta ayollar va 1 890 ta yoshlar subyektiga ega. Bu esa gender siyosati va yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilishga qaratilgan dasturlar samaradorligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, boshqa tumanlarda bu ko‘rsatkichlarning past bo‘lishi yoshlar va ayollarning moliyaviy resurslarga, zamonaviy bilimga hamda konsalting xizmatlariga kirish imkoniyatining cheklanganligini anglatadi. Shu sababli, alohida tumanlar uchun “gender va yoshlar biznes inkubatori” loyihalarini ishga tushirish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosalar va takliflar ilgari suriladi:

- Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarining soni barqaror o‘sib bormoqda, biroq tumanlar o‘rtasida o‘sish sur‘atlari va faoliyat samaradorligida sezilarli tafovutlar mavjud.
- Kichik biznes faoliyati asosan savdo va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida to‘plangan, ishlab chiqarish va logistika sohalarida esa rivojlanish sust kechmoqda.
- Moliyalashtirish manbalarining asosiy qismini bank kreditlari va xususiy mablag‘lar tashkil etmoqda, davlat subsidiyalari va xorijiy investitsiyalar ulushi esa past darajada qolmoqda.
- Kichik biznes subyektlari orqali yaratilgan ish o‘rinlari, soliq tushumlari hamda ijtimoiy guruhlar — ayollar va yoshlar ishtiroki mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Takliflar:

- Har bir tumanning resurs salohiyatidan kelib chiqib, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlariga ixtisoslashgan kichik biznes klasterlarini rivojlantirish lozim.
- Past moliyalashtirish ko‘rsatkichlariga ega tumanlarda imtiyozli kreditlar, kafillik fondlari, startap grantlari va davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya mexanizmlarini kengaytirish zarur.
- Tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish va bu yo‘nalishda kichik biznes loyihalarini rag‘batlantirish kerak.

- Raqamli boshqaruv platformalari, onlayn hisobotlar, elektron soliq nazorati va CRM tizimlaridan foydalanishni kichik biznes subyektlariga moslashtirish talab etiladi.

- Har bir tumanda ayollar va yoshlar uchun alohida inkubatsion markazlar tashkil etilib, ularning biznes ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv dasturlarini joriy etish lozim.

Mazkur takliflar amalga oshirilsa, Namangan viloyatida kichik biznesning raqobatbardoshligi oshib, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissassi sezilarli darajada ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter, M. (1980). *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. Free Press.

2. Drucker, P. (2006). *Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles*. HarperBusiness.

3. Kotler, P. (2003). *Marketing Management*. Pearson Education.

4. G'afurov, U.V. (2020). *Kichik biznesning boshqaruv mexanizmlari*. Toshkent: Fan.

5. Mullabayev, B.B. (2021). *Hududlarda kichik tadbirkorlik rivojlanishini strategik boshqarish*. Namangan: Namangan davlat universiteti.

6. Qosimov, R. (2022). *Kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyoti*. Toshkent: Iqtisod-moliya.

7. Namangan viloyati statistika boshqarmasi. (2023). *Hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar yig'indisi*. Namangan.

8. Namangan viloyati iqtisodiy taraqqiyot boshqarmasi. (2023). *Tahliliy axborot byulleteni*. Namangan.

9. Namangan viloyati Moliya boshqarmasi. (2023). *Moliyaviy faoliyat hisobotlari*. Namangan.

10. Namangan viloyati Bandlik boshqarmasi va Soliq qo'mitasi. (2023). *Ijtimoiy-iqtisodiy tahliliy ma'lumotlar*. Namangan.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni "Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida".

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyun PQ-357-son "Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-6654246>

13. World Bank. (2022). *Doing Business Report*. Washington D.C.: World Bank Publications.

14. OECD. (2021). *SME and Entrepreneurship Outlook*. Paris: OECD Publishing.

15. IFC. (2023). *Access to Finance for Small Enterprises in Central Asia*. International Finance Corporation.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**